SUG‘D VA SUG‘DIYLAR TARIXINI O‘RGANISHDA MANBASHUNOSLIK YONDASHUVLARI

Axmadov Sherzod Ma'rufjonovich

Annotatsiya. Maqolada Sug‘d va sug‘diylar tarixini o‘rganishning asosiy *manbashunoslik yondashuvlari tahlil qilinadi. Xitoy yilnomalari, sug‘diy yozma hujjatlar, yunon-rim, vizantiya, arab-fors va turkiy manbalar, shuningdek, arxeologik, epigrafik hamda numizmatik materiallarning ilmiy imkoniyatlari yoritiladi. Turli tillar va tarixiy muhitlarda yaratilgan ma’lumotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish, ularning mualliflik pozitsiyasi, xronologiyasi, ishonchlilik darajasi va axborot chegaralarini aniqlash zarurati asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Sug‘d, sug‘diylar, manbashunoslik, tarixshunoslik, yozma manbalar, Xitoy yilnomalari, sug‘diy hujjatlar, arxeologik manbalar, epigrafika, numizmatika.*

Abstract. *This article examines the principal source-critical approaches to studying the history of Sogdiana and the Sogdians. It explores the scholarly value of Chinese chronicles, Sogdian written documents, Greek and Roman, Byzantine, Arabic-Persian, and Turkic sources, as well as archaeological, epigraphic, and numismatic evidence. The article emphasizes the need for a comparative and critical analysis of information produced in different languages and historical contexts. Particular attention is given to identifying the authors’ perspectives, chronology, degree of reliability, and informational limitations of the sources.*

Keywords: *Sogdiana, Sogdians, source studies, historiography, written sources, Chinese chronicles, Sogdian documents, archaeological sources, epigraphy, numismatics.*

Kirish

Sug‘d va sug‘diylar tarixi ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyosining siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini tushunishda alohida ahamiyatga ega. Zarafshon va Qashqadaryo vohalari, Buxoro, Samarqand, Panjikent, Kesh hamda ularga tutash hududlarda shakllangan Sug‘d sivilizatsiyasi o‘z geografik chegaralari bilan cheklanib qolmagan. Sug‘diylarning Sharqiy Turkiston, Xitoy, Mo‘g‘uliston, Yettisuv, Hindiston, Eron va Vizantiya tomon yo‘nalgan savdo-diplomatik faoliyati natijasida

ularning tarixiy izlari Yevrosiyoning keng hududlarida saqlanib qolgan. Sug‘dshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi arxeologik qazishmalar, sug‘diy yozuv yodgorliklarining o‘qilishi, Xitoy hududidan topilgan dafn inshootlari, epitafiyalar va tasviriy san’at namunalarining ilmiy muomalaga kiritilishi bilan uzviy bog‘liqdir. Frantz Grenet ushbu jarayonning tarixshunoslikdagi asosiy omillarini quyidagicha ifodalaydi: “Sug‘dshunoslikning ravnaq topishiga, bir tomondan, mutaxassislar o‘rtasidagi aloqalarning yaxshilanishi, ikkinchi tomondan, Xitoydagi tasodifiy topilmalar sabab bo‘ldi” [1, F. Grenet – 28-b.]. Mazkur fikr Sug‘d tarixini o‘rganishdagi yangilanishlar faqat yangi yozma matnlar topilishi bilan bog‘liq emasligini ko‘rsatadi. Ilgari alohida o‘rganilgan filologik, arxeologik, san’atshunoslik va sinologik materiallarning o‘zaro bog‘lanishi ham Sug‘d sivilizatsiyasi haqidagi tasavvurlarni kengaytirgan.

Sug‘d tarixiga oid manbalar kelib chiqishi, tili, yaratilish maqsadi va axborot doirasi jihatidan bir xil emas. Sug‘diy “Qadimgi maktublar”, Mug‘ tog‘i hujjatlari, Bug‘ut va Qorabolg‘asun bitiklari, Yuqori Hind vodiysidagi yozuvlar sug‘diylarning o‘zlari tomonidan yaratilgan manbalar sirasiga kiradi. Xitoy sulolaviy yilnomalari, sayohatnomalar, ma’muriy hujjatlar va dafn epitafiyalari esa Sug‘d hamda sug‘diy diasporalar tarixini tashqi kuzatuvchi nuqtayi nazaridan yoritadi. Arab-fors tarixiy-geografik asarlari, Vizantiya mualliflarining xabarlari, arman va suryoniy manbalari bu ma’lumotlarni boshqa siyosiy va madaniy muhit nuqtayi nazaridan to‘ldiradi. Étienne de la Vaissière manbalar doirasining bunday kengligini ta’kidlab: “Davrdosh sug‘diy, xitoy, arab, vizantiya va arman manbalari sug‘diylarni Ichki Osiyoning yirik savdogarlari sifatida tasvirlaydi” [2, É. de la Vaissière – 23-b.], – deb yozadi. Bu iqtibos sug‘diylarning xalqaro savdodagi mavqeyi birgina tarixiy an’ana xabari emas, balki turli manba guruhlarida aks etgan umumiy hodisa ekanini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, manbalardagi ma’lumotlarning takrorlanishi ularning mazmunan bir xil va mutlaq ishonchli ekanini anglatmaydi. Xitoy yilnomalaridagi Kang, An, Shi, Mi, Cao kabi atamalar ayrim holatlarda muayyan Sug‘d hukmdorligi yoki shahrini, boshqa holatlarda esa shu hududdan kelib chiqqan xonadon va shaxslarning familiyasini bildiradi. Xitoy saroy tarixchilari elchilik, o‘lpon va savdoni imperiyaning siyosiy tasavvurlari asosida bayon qilgan. Shu sababli yilnomalarda “o‘lpon keltirish” sifatida qayd etilgan tashriflarning bir qismi amalda savdo yoki diplomatik manfaatlarni ko‘zlagan bo‘lishi mumkin. Bunday xabarlarni sharhlashda xitoycha transkripsiyalarning sug‘diy shakllarini aniqlash, bir shaxs yoki joy nomining turli yozilishlarini qiyoslash, voqea sanasi hamda xabar yozib olingan davr o‘rtasidagi farqni hisobga olish zarur.

Sug‘diylarning Yevrosiyo aloqalaridagi o‘rnini ifodalashda ilmiy adabiyotlarda “savdo imperiyasi” yoki “savdo saltanati” tushunchalari ham qo‘llanadi. Valerie Hansen: “Siyosiy jihatdan hech qachon birlashmagan va o‘z harbiy kuchiga ega bo‘lmagan bo‘lsalar-da, ular Yevrosiyoning katta qismini qamragan savdo saltanatini shakllantirdilar” [3, V. Hansen – 149-b.], — deb ta’kidlaydi. Bu yerda “savdo saltanati” markazlashgan davlatni emas, balki qarindoshlik, hamkorlik, shahar jamoalari, karvon yo‘llari va o‘zaro ishonch asosida faoliyat yuritgan keng savdo tarmog‘ini ifodalovchi ilmiy tushunchadir. Shuning uchun ushbu iborani siyosiy imperiya ma’nosida talqin qilish tarixiy manzarani buzishi mumkin.

Maqolaning asosiy maqsadi Sug‘d va sug‘diylar tarixiga oid yozma, arxeologik, epigrafik, numizmatik hamda tasviriy manbalarni o‘rganish tamoyillarini aniqlashdan iborat. Bunda manbaning yaratilgan davri va muhiti, muallifning maqsadi, axborotning bevosita yoki bilvosita xususiyati, matnning saqlanish holati, tarjima va talqin muammolari, shuningdek, turli manba guruhlari o‘rtasidagi muvofiqlik va tafovutlar tahlil qilinadi. Ana shunday qiyosiy-tanqidiy yondashuv Sug‘dning siyosiy tarixi, savdo-diplomatik faoliyati, diasporalari va madaniy ta’sirini dalillarga tayangan holda yoritish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili

Sug‘d va sug‘diylar tarixiga oid ilmiy adabiyotlarda yozma manbalarni o‘rganish, arxeologik topilmalarni sharhlash, epigrafik matnlarni o‘qish hamda tangalardagi yozuv va tasvirlarni aniqlash yetakchi yo‘nalishlar sifatida shakllangan. O‘zbek va rus sharqshunoslik maktablari vakillari sug‘diy manbalarni til, yozuv, tarixiy geografiya, siyosiy hokimiyat, savdo va diniy hayot bilan bog‘liq holda tadqiq qilgan. Mazkur tadqiqotlarni manbashunoslik nuqtayi nazaridan baholash manbaning yaratilgan joyi, davri, vazifasi va axborot doirasini aniqlash imkonini beradi.

O‘zbek olimlari Mirsodiq Is’hoqov va Bobir G‘oyibovning tadqiqotida Dunxuan yaqinidan topilgan sug‘diy Qadimgi maktublar alohida manbalar majmuasi sifatida o‘rganilgan. Mualliflar ushbu hujjatlarning tarixiy qimmatini quyidagicha ifodalaydi. “Ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyo tarixida sug‘diy manbalar muhim o‘rin tutadi. Tarixiy Sug‘ddan tashqarida yaratilgan Qadimgi maktublar sug‘diylarning Xitoydagi faoliyatini yoritadi” [4, M. Iskhakov va B. Goyibov – 58-63-b.]. Mazkur fikr sug‘diy hujjatlarni faqat Sug‘d hududidan topilgan manbalar bilan cheklab o‘rganish yetarli natija bermasligini ko‘rsatadi. Dunxuan, Gansu va Xitoyning ichki viloyatlaridan topilgan maktublar sug‘diy savdogarlarning ko‘chish yo‘nalishlari, savdo aloqalari, oilaviy munosabatlari va jamoaviy hayoti haqida ma’lumot beradi. Ularning Samarkand bilan aloqasi tarixiy Sug‘d va Sharqiy Turkiston o‘rtasida doimiy axborot

almashinuvi mavjud bo‘lganini anglatadi. Shu sababli hujjatning topilgan joyi bilan unda tasvirlangan tarixiy makonni farqlash manbashunoslik tahlilining muhim sharti hisoblanadi.

Rus ilmiy an’anasi vakili Mixail Fedorov sug‘d hukmdorlarini aniqlashda Afrasiyob devoriy yozuvlari va tanga bitiklarini qiyosiy o‘rgangan. Uning tadqiqoti epigrafik va numizmatik ma’lumotlar bir siyosiy masalani turli tomondan yoritishini ko‘rsatadi. “Samarkand saroyidagi Varxuman Unash yozuvi hamda tangalardagi Mastich Unash nomi Shishpir asos solgan sulola Unash deb atalganini ko‘rsatadi” [5, M. Fedorov – 155-b.]. Fedorovning xulosasi hukmdor nomi, sulolaviy nisba va siyosiy unvonlarni aniqlashda bir turdagi dalil bilan cheklanib qolmaslik zarurligini anglatadi. Afrasiyob yozuvi muayyan saroy va marosim muhiti bilan bog‘liq. Tanga bitiklari esa hokimiyatning rasmiy ifodasi sifatida keng hududga tarqalgan. Ikki manba guruhidagi Unash nomining o‘zaro mos kelishi Samarkand hukmdorlari sulolasining nomlanishiga oid xulosani mustahkamlaydi. Shu bilan birga, bunday xulosani Xitoy yilnomalarida uchraydigan hukmdor nomlari va ularning xitoycha yozilish shakllari bilan taqqoslash tadqiqotning daliliy asosini yanada kengaytiradi.

Rus numizmati Yevgeniy Zeymal ilk o‘rta asrlardagi pul muomalasini iqtisodiy hayot bilan birga siyosiy hokimiyat tarixini yorituvchi manba sifatida baholagan. Sug‘d tangalaridagi yozuv, unvon, tamg‘a va tasvirlar hukmdorning siyosiy mavqeyi hamda tashqi madaniy ta’sirlarni aniqlash imkonini beradi. “Ixshidlar ko‘proq Xitoy andozasidagi mis tangalarni zarb etgan. Ulardagi oromiy va sug‘diy yozuvlar hukmdor nomi hamda unvonini bildiradi” [6, E.V. Zeimal – 249-b.]. Mazkur qarash sug‘d tangalarini faqat pul muomalasi dalili sifatida talqin qilish doirasini kengaytiradi. Xitoy andozasidagi shakl Sharqiy Osiyo bilan aloqalarni, sug‘diy yozuv mahalliy siyosiy va til an’analarini, oromiy unvon esa qadimgi yozuv merosining davomiyligini ko‘rsatadi.

Natijalar va muhokama

Sug‘d va sug‘diylar tarixiga oid yozma hamda moddiy manbalarni qiyosiy o‘rganish Sug‘d tushunchasi turli davrlarda bir xil hududiy mazmunni anglatmaganini ko‘rsatdi. Antik mualliflar Sug‘diyona nomini siyosiy va ma’muriy hududga nisbatan qo‘llagan. Sug‘d tilining tarqalish doirasi esa mazkur hudud chegaralaridan kengroq bo‘lgan. Shu sababli siyosiy hudud, sug‘diy aholi yashagan joylar va sug‘d tilidan foydalanilgan makonlarni alohida o‘rganish zarur. Boris Marshak antik geograflar bergan ma’lumotlarni arxeologik dalillar bilan muvofiqlashtirishda ehtiyotkorlik zarurligini quyidagicha ifodalaydi. “Yunon va Rim mualliflari aholining tarqalishidan ko‘ra Ahamoniylar davlatining ma’muriy chegaralariga tayangan bo‘lishi mumkin” [7, B.I. Marshak – 3-b.]. Mazkur fikr Sug‘diyona chegaralarini faqat yunon va rim

mualliflari xabarlariga asoslanib belgilash yetarli natija bermasligini ko‘rsatadi. Zarafshon va Qashqadaryo vohalaridan topilgan yodgorliklar, sug‘diy yozuv namunalari, tangalar hamda shahar madaniyatiga oid topilmalar hududiy masalalarni aniqlashtiradi. Bunda biror yodgorlikning Sug‘d hududidan topilgani uni barcha davrlar uchun sug‘diy madaniyatga mansub deb baholashga to‘liq asos bermaydi. Topilmaning sanasi, arxeologik qatlami, yozuvi, tasviriy belgilari va o‘sha davrdagi siyosiy sharoit birgalikda hisobga olinishi lozim.

Rong Xinjiang turli manba guruhlarini birgalikda o‘rganish orqali sug‘diylarning Sharqqa siljish yo‘llarini aniqlash mumkinligini ta’kidlaydi. “Xitoy va eroniy hujjatlar, xitoycha bitiklar, an’anaviy yilnomalar hamda arxeologik dalillar sug‘diylarning Sug‘ddan shimoli-sharqiy Xitoygacha borgan yo‘llarini aniqlashga xizmat qiladi” [8, Rong Xinjiang – 147-b.]. Xitoy hududidan topilgan qabr bitiklari ayrim sug‘diy oilalarning kelib chiqishi, avlodlari, egallagan lavozimlari va yashagan joylari haqida aniq ma’lumot beradi. Xitoy manbalaridagi An, Kan, Shi, Sao va Mi kabi familiyalar ko‘pincha Buxoro, Samarqand, Kesh, Choch hamda Maymurg‘ kabi vohalar bilan bog‘langan. Biroq familiyaning o‘zi shaxsning kelib chiqishini aniqlash uchun yetarli bo‘lmaydi. Qabr bitigidagi nasab ma’lumotlari, mansab nomlari, dafn sanasi, tasviriy lavhalar va boshqa buyumlar ham tekshirilishi kerak.

Sug‘d jamiyatining diniy hayotini o‘rganish ham manbalardan birgalikda foydalanishni talab qiladi. Sug‘diy diniy matnlari ko‘pincha Sug‘diyonadan tashqaridagi hududlardan topilgan. Mahalliy ibodatxonalar, ossuariylar, devoriy rasmlar, muhrlar va tangalardagi tasvirlar esa diniy amaliyotning Sug‘d vohalaridagi ko‘rinishlarini yoritadi. Barakatullo Ashurov bu masalada quyidagi xulosani ilgari suradi. “Saqlanib qolgan arxeologik va etnografik dalillar hamda yozma manbalar Sug‘diyonani ko‘plab diniy guruhlardan tarkib topgan rang-barang jamiyat sifatida ko‘rsatadi” [9, B. Ashurov – 1-b.]. Mazkur xulosa zardushtiylik, buddaviylik, moniylik va nasroniylikka oid manbalarni bir tarixiy muhit doirasida o‘rganish zarurligini anglatadi. Diniy matnning sug‘d tilida yozilgani uning butun Sug‘d aholisi orasida bir xil darajada tarqalganini bildirmaydi. Xuddi shuningdek, devoriy rasm yoki tanga yuzasidagi diniy belgi hukmdor, buyurtmachi, mahalliy jamoa yoki muayyan marosim bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Uning ma’nosi topilgan joy, davr, tasvirlar majmuasi va yozma ma’lumotlar asosida aniqlashtiriladi.

Umumiy natija shuni ko‘rsatadiki, Sug‘d va sug‘diylar tarixini o‘rganishda hudud, davr, manbaning yaratilish maqsadi va uning topilgan joyi asosiy mezonlar hisoblanadi. Yozma manba muallifining qarashlari, siyosiy mansubligi va foydalanilgan atamalar aniqlanmasdan turib, undagi xabarni tarixiy voqelikning to‘liq

ifodasi sifatida qabul qilish qiyin. Arxeologik, epigrafik va numizmatik dalillar yozma xabarlarni tekshirish hamda ularning mazmunini aniqlashtirish imkonini beradi. Shu yondashuv Sug‘d tarixining hududiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarini izchil yoritishga xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari Sug‘diyona tushunchasining hududiy mazmuni tarixiy davrlarga qarab o‘zgarib borganini ko‘rsatadi. Antik mualliflar tasvirlagan ma’muriy chegaralar, o‘rta asr manbalarida qayd etilgan siyosiy hududlar va sug‘diy aholi yashagan joylar har doim bir-biriga to‘liq mos kelmagan. Shu bois Sug‘d tarixini o‘rganishda siyosiy hudud, til tarqalgan makon, arxeologik madaniyat va sug‘diy jamoalar faoliyat yuritgan savdo manzillarini alohida mezonlar asosida baholash zarur. Umuman, Sug‘d va sug‘diylar tarixining haqqoniy manzarasi bir manba turiga tayanish orqali to‘liq ochilmaydi. Har bir manbaning yaratilgan vaqti, muallifi, tili, maqsadi, saqlanish holati va topilgan joyi hisobga olinishi kerak. Manbalarni tanqidiy tekshirish va o‘zaro qiyoslash Sug‘d sivilizatsiyasining siyosiy tarixi, savdo faoliyati, diplomatik aloqalari, diniy qarashlari va madaniy merosini yaxlit tarzda yoritishning eng maqbul yo‘lidir. Bu yondashuv Sug‘d tarixidagi bahsli masalalarni aniqlashtirish bilan birga, Markaziy Osiyoning jahon sivilizatsiyalari o‘rtasidagi tarixiy o‘rnini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Grenet, Frantz. “The Pre-Islamic Civilization of the Sogdians (Seventh Century BCE to Eighth Century CE): A Bibliographic Essay (Studies since 1986)” // The Silk Road. Vol. 1, No. 2. 2003. – P. 28-36.

2. de la Vaissière, Étienne. “Sogdians in China: A Short History and Some New Discoveries” // The Silk Road. Vol. 1, No. 2. 2003. – P. 23-27.

3. Hansen, Valerie. “New Work on the Sogdians, the Most Important Traders on the Silk Road, A.D. 500-1000” // T’oung Pao. Vol. 89, Fasc. 1-3. 2003. – P. 149-159.

4. Mirsadik Iskhakov va Bobir Goyibov. Graphemological Features of the Sogdian Ancient Letters Script. International Journal of History and Political Sciences. 6-jild, 3-son. 2026. 58–63-betlar.

5. Michael Fedorov. On the Portraits of the Sogdian Kings of Samarqand. Iran. 45-jild. 2007. Iqtibos olingan sahifa 155-bet.

6. E. V. Zeimal. The Circulation of Coins in Central Asia during the Early Medieval Period. Bulletin of the Asia Institute. 8-jild. 1994. Iqtibos olingan sahifa 249-bet.

7. Marshak, Boris I. The Archaeology of Sogdiana. The Silk Road. 1-jild. 2-son. 2003. 3–8-betlar.

8. Rong Xinjiang. New Light on Sogdian Colonies along the Silk Road. Recent Archaeological Finds in Northern China. Berichte und Abhandlungen. 10-jild. Akademie Verlag. Berlin. 2006. 147–160-betlar.

9. Ashurov, Barakatullo. Religions and Religious Space in Sogdian Culture. A View from Archaeological and Written Sources. Sino-Platonic Papers. 306-son. 2020. 1–41-betlar.